

## MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA BOLALARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIIMINING SHAKLLANISHI.

**Xaydarov Shavkatjon Berdiyov o'g'li**

Samarqand Davlat Pedagogika Universiteti, magistr

[xaydarovshavkatjon96@gmail.com](mailto:xaydarovshavkatjon96@gmail.com)

+998944779930

**Annotasiya:** Mustaqillikka erishganimizdan keyin O'zbekistonda Bolalarni himoya qilish sohasi, xususan ota-onasidan ayrilgan, tazyiq va zo'rovonlikka uchragan, bolalikdan nogironligi bo'lgan bolalar hamda kam ta'minlangan oila farzandlari uchun yurtimizda barcha bilan teng imkoniyatlar yaratilib kelinayotgani ushbu maqolada yoritilib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy himoya, vasiylik, homiylik, ijtimoiy xizmatlar, yetim bolalar, ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum etilgan bolalar, kam ta'minlangan oilalar, bolalikdan nogironligi bo'lgan bolalar, tazyiq va zo'rovonlik, UNICEF.

Bolalarni ijtimoiy himoya qilish har qanday jamiyatning jadal rivoji va kelajagini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Bolalar bir tomondan jamiyatdagi eng himoyaga muhtoj qatlam hisoblanadi, boshqa tomondan davlatning kelajagi uchun eng muhim resurs hisoblanadi. Shu sababli ularni huquq va manfaatlarini himoya qilish, sog'lom bilimli va barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatini ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach Sobiq Ittifoq davrida mavjud bo'lgan markazlashgan va cheklangan ijtimoiy ta'minot tizimidan voz kechib, bolalarni ijtimoiy himoya qilishning milliy, huquqiy va zamonaviy tizimini shakllantirish yo'lini tanladi. Ushbu maqolada bu bosqichlar va ularning mazmun-mohiyati yoritilib beriladi.

Birinchi bosqich 1991-2000 yillarni o'z ichiga olib, bu davrda bolalarni ijtimoiy himoya qilishni poydevori yaratildi. 1992-yil qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham ota-onalar farzandlari katta bo'lguncha ularni boqish va

tarbiyalashga majburdir, yetim bolalar va ota-onalar qarmog'idan mahrum bo'lgan Bolalarni davlat boqish, tarbiyalash va o'qishini ta'minlaydi deb belgilab o'tilgan.[1.20] Bundan ko'rishimiz mumkinki bolalarni ijtimoiy himoya qilinishi oliy qomusimiz darajasida ko'tarilgan.Yana har kimning erkin bilim olish huquqiga ega ekanligi va kafolatlangan tibbiy xizmatlar olish huquqiga ega ekanligi ham oliy qomusimizda e'tirof etilgan.[1..13]

Bundan tashqari 1992-yil 9-dekabrda BMTning 54 moddadan iborat "Bola huquqlari to'g'risida" konvensiyasi O'zbekistonda ratifikatsiya qilindi. Bunda ko'ra O'zbekiston bolalarning yashash, rivojlanish, ta'lim olish va sog'liqni saqlash hamda zo'ravonlikdan himoyalash huquqlarini va xalqaro standartlarga ko'ra ta'minlanish majburiyatini oldi. Bu esa milliy qonunchilikni xalqaro normalar talablariga moslashtirish jarayonini jadallashtirdi.

Mustaqillik yillarida bolalarni ijtimoiy himoya qilish ko'p qirrali tizim sifatida shakllantirildi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va mahalla institutlari o'zaro uzviy hamkorlikda faoliyat yurita boshladi. Davlat tomonidan umumiy o'rta ta'lim bepul va majburiy etib belgilanib, bolalarni bilim olish saviyasi ko'tarildi. Buni natijasida aholining savodxonlik darajasi hozirgi kunga kelib O'zbekistonda 99.9 foizni tashkil etadi va bolalarni maktabga borishi 93 foizdan ko'proqni tashkil etayapti. 2010-yilda bolalarni maktabgacha ta'limga jalb etilganlari soni 686 nafari tashkil etgan bu ko'rsatkichlar 2024 yilga kelib 2783043 taga yetkazilgan[2]. Mustaqillikdan keyin tibbiyot sohasida bolalarni himoya qilish borasida ham o'ziga xos yutuqlarga erishilgan, masalan go'daklar o'limi soni zamonaviy taxnologiyalar orqali keskin qisqartirilayapdi, ko'kyo'tal va boshqa yuqumli kasalliklarga qarshi emlash foizi bugungi kunda 99.2 foizni tashkil qilinyapti. [2] Respublikamiz bo'ylab 87 ta nogiron bolalarni o'qitish maktablari ochilgan, ularda imkoniyati cheklangan bolalar uchun keng imkoniyatlar yaratilib berilgan va nogironligi bo'lgan bolalarni jamiyatga qo'shish uchun Respublikamizda 1000dan ortiq maktablarda inklyuziv ta'lim dasturlari joriy etilib, maktablarning holati shu jarayon uchun moslashtirilayapdi.[5.1]

Mustaqillik yillarida yetim va ota-ona qarmog'idan mahrum bo'lgan Bolalarni ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishlarida biriga aylandi. Dastavval yetim bolalar uchun internat tipidagi bolalar uylari va mehribonlik uylari tashkil etilgan, lekin hozirda yetim va ota-ona qarmog'idan mahrum etilgan bolalarni yangi shaklda tutingan (foster) oilalarga berish tartibi o'rnatilayapdi,[4.2] bunda ko'zlangan maqsad bolalarni oila bilan birga yashab, oilaviy qadriyatlarni anglab voyaga yetishi keragligi degan qarash ilgari surilayapdi. 2022-yill O'zbekiston bo'yicha 10 ta Mehribonlik uyi 4 ta bolalar shaharchasida va 2 ta bolalar uyi yopilgani aytiladi.[2] Yetim va ota-onasidan mahrum etilgan bolalarning farzandlari uchun Mehr daftari tashkil etilib unga ko'ra bolalar birorta fanga qiziqsa va to'garakka borsa, tayyorlanishi harajatlari qoplab berilishi belgilab qo'yildi, agar harbiy xizmatga yoki avtomobil boshqaruvi uchun ruxsatnoma uchun o'qimoqchi bo'lsa ham davlat tomonidan bu toifadagi bolalar uchun to'liq qoplab berilyapdi. Bundan tashqari 18 yoshga kirganidan so'ng navbat tizimi orqali chin yetim va ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bolalar uchun uy-joylar berilmoqda va o'qishga kirish uchun alohida kvotalar ajratib berilyapdi.[6.7] 2017-yildan keyin bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi tubdan isloh e'tildi tazyiq va zoravonlikka uchragan bolalarni ijtimoiy himoya qilish uchun aniq tizim ishlab chiqildi. Ayniqsa 2023-yil Ijtimoiy himoya milliy agentligi va "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etilgandan keyin zo'ravonlikka uchragan bolalar bir kun ichida aniqlanganidan keyin topilib unga ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishi tizimi joriy etildi.[3.2]

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston mustaqillik yillarida bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi izchil rivojlanib, huquqiy va amaliy jihatdan takomillashdi. Bugungi kunda bu yurtimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun juda katta ahamiyatga ega jarayon hisoblanib kelmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar orqali ushbu tizim yanada jadal rivoji uchun zamin yaratib kelinyapdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 08.12.1992

2. O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga 2025
3. “Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini aniqlash ,zo‘ravonlik xavfi darajasini baholash, himoya rejasini ishlab chiqish hamda uning amalga oshirish tartibi to‘g‘risida“440-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori 14.06.2025
4. “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘ida mahrum bo‘lgan Bolalarni joylashtirish shakllari bo‘yicha ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida“ 893-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori 27.12.2024
5. “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida “ PQ-4860-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 13.10.2020
6. “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘ida mahrum bo‘lgan Bolalarni uy joy bilan ta'minlash tartibi to‘g‘risida“ Vazirlar Mahkamasini 656-sonli qarori